

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YER AXBOROT
TA'MINOTINI SHAKLLANTIRISH YO'LLAR**

Sattorov Shahzod Yarashovich

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasida dotsent v.b.*

E-mail: shsattorov1993@mail.ru

Ochilov Askar Boymurodovich

Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasida tadqiqotchisi

Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich

Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi talabasi

Teshayev Hasan Murtazoyevich

Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yillik davri tahlili shuni ko'rsatadiki, yer munosabatlarini bozor sharoitiga moslash, yer mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va modernizatsiyalash bo'yicha ma'lum tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgartirishlari, o'z navbatida yer islohotlari o'tkazishni zaruriyatga aylantirmoqda.

Kalit so'zlar: Yer uchastkasi, ko'chmas mulk, bino inshoot, raqamlashtirish, integratsion tizimlar, yer munosabatlari, Ko'chmas mulk ma'lumotlar bazasi, elektron dastur.

**WAYS TO FORM LAND INFORMATION SUPPLY
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Annotation: The analysis of the 30-year period of independence of the Republic of Uzbekistan shows that certain measures are being implemented to adapt land relations to market conditions, expropriate land property and modernize it. Structural changes in economic sectors, in turn, make land reforms necessary.

Keywords: Land plot, real estate, building structure, digitization, integrated systems, land relations, Real estate database, electronic program.

**ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНО-ИНФОРМАЦИОННОГО
ОБЕСПЕЧЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

Аннотация: Анализ 30-летнего периода независимости Республики Узбекистан показывает, что реализуются определенные меры по адаптации земельных отношений к рыночным условиям, экспроприации земельной собственности и ее модернизации. Структурные изменения в секторах экономики, в свою очередь, делают необходимыми земельные реформы.

Ключевые слова: Земельный участок, недвижимость, строительная конструкция, оцифровка, интегрированные системы, земельные отношения, база данных недвижимости, электронная программа.

1991 – 1996 yillarda mamlakatda yer munosabatlari keskin o‘zgardi. Bu yurtimizda yerdan foydalanishning yangi ko‘p qirrali tizimini yaratilishiga olib keldi. U quyidagicha tavsiflanadi: yerga mulkchilik shaklining ko‘p xilligi; yerga bo‘lgan davlat monopoliyasini bekor qilish va yerni fuqarolar foydasiga qayta taqsimlab berish; yerdan foydalanilgani uchun haq to‘lash; yer uchastkalarini xususiylashtirish, dehqon va fermer xo‘jaliklari shakllanganligi; yer uchastkalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, servitutni joriy qilish.

Shuningdek, yer kadastrini yaratish va yuritish hamda yer uchastkalarini ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha muayyan huquqiy baza shakllantirilgan. Yer kadastrini axborot tizimining ikkinchi bosqichi 1997 – 2021 yillarni qamrab olgan.

Yer munosabatlarini tartibga solishda davlat siyosatining tamoyillar ustuvorligi ta‘minlangan. Jumladan, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

yer islohotlarini bosqichlar ketma-ketligini inobatga olgan holda amalga oshirishda asoslash e‘tiborini yerdan samarali foydalanishni tashkil qilish;

yer uchastkasi va uning hududidagi ko‘chmas mulk obyektlari to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta‘minlash;

yer uchastkasi va servitutlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni innovatsion texnologiya va kreativ yechimlar asosida amalga oshirish;

mulk obyektlariga nisbatan idoralararo o‘zbiarmonlikni bartaraf qilish bo‘yicha boshqaruv organlari vakolatlarining aniq chegaralanganligi;

yer munosabatlarini muvofiqlashtirish borasida davlat siyosatini o‘tkazilishini ta‘minlovchi yagona normativ-huquqiy mezonlarni ishlab chiqish; ko‘chmas mulk obyektlarini ro‘yxatga olishni davlat standartlari bilan muvofiqlashtirish, baholash uslubiyati, hisoboti va hujjatlarni rasmiylashtirishni ta‘minlovchi yagona normativ-huquqiy makonni yaratish;

yer uchastkalarida chegara belgilarini o‘rnatish zaruriyatini mavjudligini asoslash;

qishloq xo‘jaligi sohasidagi yerdan foydalanuvchi subyektlar uchun yer kadastrini axborotlarini elektron dasturlar asosida shakllantirish;

tuman yer balansi texnologiyalarini mahalla fuqarolar yig‘ini kesimida amalga oshirishni tashkil qilish;

yer uchastkasi va ko‘chmas mulk obyektlari to‘g‘risida yagona davlat yer kadastrini axborot tizimini yaratishni moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlash.

Ma‘lumki, har qanday davlatning barqarorligi va gullab-yashnashini ta‘minlovchi bosh manba uning tasarrufidagi resurslar hisoblanadi. Amalda yer kadastrini samarali yuritish va boshqaruv tizimi davlat uchun birdek muhim ahamiyatga ega. Yer kadastrini

axborotlarini ishlab chiqishda zamonaviy uslub va kreativ yondashuvlar Respublika yer fondidan foydalanishning amaldagi holati yerga bo'lgan mulkchilikni xususiylikka aylantirishda texnik, iqtisodiy hamada huquqiy asosda amalga oshiriladigan samarali uslublarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yerdan foydalanishni boshqarishga oid farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va qonun va qonun osti hujjatlari talablariga ham mos keladi. Taklif etilayotgan Dasturning asosiy maqsadi zamirida quyidagilar e'tirof etish mumkin:

Respublika yer fondi uning xalqi hayoti va farovonligi uchun xizmat qiladi, shu sababli undan samarali foydalanish zarur va uni muxofazasi davlat tomonidan kafolatlanadi;

mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yer qonunchiligiga qat'iy rioya qilgan holda yerga egalik va undan foydalanish huquqini tegishli davlat organlari tomonidan tartibga solib boriladi;

yer uchastkasini yuridik va jismoniy shaxslarga ehtiyojiga qarab belgilangan tartibda tanlash va ajratish yer tuzish loyihasi asosida amalga oshiriladi;

yer kadastrini axborotlarini shaffof, tejamkor va ishonchli ishlab chiqish asosida iqtisodiyot tarmoqlarini istiqboldagi rivojini belgilovchi tadbirlar samaradorligini taminlashga qaratilgan muhim ilmiy yo'nalish tariqasida ko'rib chiqiladi;

tub iqtisodiy islohotlar, jumladan, yer islohoti ishonchli, haqqoniy va shaffof tezkor yer kadastrini axborotlari bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi yer kadastrini axborot ta'minotining 2030 yillargacha mo'ljallangan dasturini ishlab chiqish zarurati, yurtimizda yer fondi umumiy ko'chmas mulk iqtisodiyoti aylanmasiga to'liq qo'shib ketganligidan, undan oqilona foydalanish va uni muhofazalashning takomillashgan milliy tizimini yaratish zaruratidan kelib chiqmoqda. Bunday yondashish yerga bo'lgan mulkiy va boshqa huquqlar ro'yobga chiqishi hamda kafolatlanishini ta'minlaydi, yerdan foydalanish va hududiy- mahalliy budjetga to'lanadigan yer haqini sezilarli oshirilishida ijtimoiy haqqoniylikka erishish, shuningdek, davlat kadastrlari obyektlarining axborotlarga boy tizimini yaratish imkonini beradi.

Iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga qarab, yer kadastrini muammolarini yechadigan davlat sektori kengayib boradi va katta sarf xarajatlar talab etadigan, ammo tezda iqtisodiy samara beradigan tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshira boshlaydi. Ushbu muammoni yumshatishda yer kadastrini sohasida bajariladigan ish hajmlarini asosiy qismini ixtisoslashgan xususiy firmalar zimmasiga yuklash tavsiya etiladi.

Mazkur dastur bandida belgilangan vazifalarni amalga oshirish unda bayon etilgan bir qancha dasturlarni 2022 yil oxirigacha ishlab chiqish va tasdiqlashni taqozo etadi. Moliya bilan ta'minlanish cheklangan sharoitlarda bunday dasturlarni tayyorlashda budjetdan mablag' olmaslik, shuningdek, xalqaro moliyalash va investitsiyani jalb qilish kabi mexanizmlarni qayta ishlab chiqishni talab qiladi.

Dasturning dastlabki bosqichi mazmunan, yer kadastrini samarali yuritish yoʻnalishlarini aks ettiradi. Ushbu bosqichda tanlab olingan strategik maqsad bir tarafdin, sarf-xarajatlar eng kam boʻlishiga, ikkincha tarafdin esa, qisqa vaqtdayoq samarali iqtisodiy foyda berishiga imkon yaratuvchi faoliyatga yoʻnaltiruvchi yer munosabatlari ustuvorligini va undagi muammolarni kamaytirishni taʼminlaydi.

Ushbu Dastur Kadastr agentligi tomonidan ishlab chiqilgan, respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, agrar va yer islohotlarining tahlili, natijalari hamda yoʻnalishlari asosida shakllantirilgan. Dasturning bosh maqsadi mavjud yer fondidan foydalanishda, uning ijtimoiy salohiyatini oshirishdagi, ishonchli haqqoniy va shaffof axborotlar hamda inson omilini keskin kamaytiruvchi tadbirlarni ishlab chiqishdir. Dasturni amalga oshirish ikki bosqichda olib boriladi. I bosqichda (2025 yilgacha) asosan, sezilarli sarf-xarajat talab qilmaydigan, yer munosabatlarida sifatli oʻzgarishlarga olib keluvchi, huquqiy, tashkiliy boshqaruv, yer kadastr axborot taʼminoti bosqichlarini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan texnologik xarakterdagi chora- tadbirlar amalga oshiriladi hamda II bosqichni oʻtkazish uchun tashkiliy-iqtisodiy baza taʼminlanadi.

II bosqichda (2026 – 2030 yillar) yerdan samarali foydalanish boʻyicha ishlarni oʻtkazishga qaratilgan yer kadastr axborot tizimini yaratishdan iborat chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yer uchastkasi va koʻchmas mulk obyektlarini shakllantirish jarayonida ushbu obyektlarni bir-biridan ajratib olish bir qancha majmuiy tadbirlarni oʻtkazishdan iborat. Buning natijasida obyekt tasdiqlangan hujjatlarning maʼlumotlari asosida shunday jismoniy, yuridik va iqtisodiy tavsifnoma oladiki, bu tavsifnoma shu koʻchmas mulk obyektini boshqalaridan yaqqol ajratib turadi.

Istiqbolda koʻchmas mulk obyekti ikki yoʻl bilan shakllantiriladi: davlat boshqaruv organlarining tashabbusi bilan va ularni mablagʻi hisobiga rejalashtirilgan roʻyxatga olish natijasida; quyidan esa yuridik va jismoniy shaxslar tashabbusi boʻyicha hamda ularning mablagʻi hisobiga. Tajriba shuni koʻrsatadiki, davlat budjeti hisobidan yalpi roʻyxatga olish katta mablagʻ sarflanishni talab qiladi va odatdagidek, kutilgan iqtisodiy samarani bermaydi. Umumiy strategiyadan ustuvorroq yoʻnalishni tanlashdan kelib chiqib, birinchi bosqichda tezroq iqtisodiy foyda bera olish imkoniyati bor hududlarda roʻyxatga olish ishini oʻtkazish omilkorlik va iqtisodiy manfaat keltiradigan usul hisoblanadi.

Davlat manfaati nuqtai nazaridan roʻyxatga olish ishlarini oʻtkazishning ustuvorroq hududi shahar va qishloqlar yerlari va foydali qazilmaga boy hamda sugʻoriladigan yerlar hisoblanadi. Koʻrsatib oʻtilgan strategik moʻljallar Kadastr agentligi tomonidan ushbu muammoni yechimiga oid maxsus Dastur ishlab chiqilishini talab etadi.

Oʻz navbatida, umumiy strategik tartibdan kelib chiqib, yer uchastkalarini roʻyxatga olish boʻyicha umumiy dastur tarkibida, hududiy dastur ham boʻlib u oʻzida

ustuvor bosqichlarni, yer fondi holati, kutilayotgan iqtisodiy-texnik tadbirlarni aks ettirmog‘i shart. Hududiy dasturlar, tashkiliy, texnik, huquqiy, texnologik, iqtisodiy, axborot va boshqa ma‘lumotlarini qamrab oladi.

Mazkur dasturni amalga oshirishda yer resurslarini boshqarish organlarining vakolatlari quyidagicha belgilangan:

yer islohotlarini tartibga solishda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy- texnik va ekologik tadbirlarni tadbiriq qilish orqali yer fondidan oqilona va tejamkorlik asosida foydalanishni tashkil qilishda maqsadli faoliyat yuritish;

yer resurslarini davlat boshqaruvida kelajak avlod hamda yerdan foydalanuvchi subyektrar, ijarachi va mulkdorlarni yerdan foydalanishni huquqiy kafolatiga e‘tibor qaratish.

Demak, yer fondidan oqilona foydalanish maqsadida yer kadastraxborotlarini shaffof va ishonchli tarzda shakllantirish miqyosidagi huquqiy, texnik, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlarni samarali joriy etishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimi hisoblanadi. Davlat kadastrlari palatasi tarkibida faoliyat yuritayotgan yer kadastr bo‘limining vazifasi yer fondidagi barcha 8 ta toifadagi yerdan foydalanuvchilar tasarrufidagi yer maydonlarini muhofaza qilish va ularni nazorat qilishga yo‘naltirilganligi bilanbelgilangan.

Fikrimizcha har bir yer fondi toifasiga tegishli yerdan foydalanuvchilar tarkibidagi yer uchastkalariga egalik qilishni qonuniyligini yoki ayrim holatlarda yer maydonini o‘zboshimchalik bilan foydalanishni aniqlashdan iborat bo‘lishi kerak.

Bunday nazorat yer uchastkalarini o‘lchamlarini va chegaralarini o‘rnatish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Amaliyotda YFSlar tomonidan quyidagi noqonuniy harakatlar kuzatilgani aniqlangan:

qonuniy yer uchastkalarining maydonlarini o‘zboshimchalik bilan kengaytirib olish;

yer uchastkasini bir qismini boshqa foydalanuvchilarga noqonuniy tarzda berish yo‘li bilan yer uchastkalarini maydonining qisqarishi;

amaliyotda yer uchastkalarini chegaralarini ularni o‘zboshimchalik bilan almashtirish orqali o‘zgartirish kabi holatlar uchrab turadi. Binobarin, foydalanuvchi yerdan amalda yuqorida keltirilgan salbiy harakatlar oqibatida unga qonuniy berilgan yerdangina emas, balki boshqa yer uchastkasidan ham foydalanayotgan bo‘lishi mumkinligi aniqlangan.

Nazoratni o‘tkazishda yer kadastr xizmati mas‘ul mutaxassisi yerdan foydalanuvchi subektlar yoki yer uchastkasi mulkdoridan yer uchastkasi unga berilishining huquqiy asoslari, yer uchastkasi o‘lchamlari va chegaralari to‘g‘risidagi barcha kerakli hujjatlarni talab qilishga haqli.

Yer uchastkalaridan belgilangan maqsadlarda foydalanmaslik qonun tomonidan taqiqlanadi va yerga egalik xuquqini bekor qilinishiga asos bo‘ladi. Har bir aniq yer uchastkasidan qaysi maqsadda foydalanilishi yer fondini boshqaruvchi davlat organlari

tomonidan aniqlanadi hamda yerga bo'lgan egalik yoki undan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarda aks ettiriladi. Tekshirish asosan hujjatda belgilangan maqsadli foydalanishning amaldagiga to'g'ri kelishini aniqlash ustidan o'tkaziladi. Davlat yer nazoratining maxsus tekshirishlari alohida yer toifalari va yer turlaridan oqilona foydalanilishini o'rganishdan tashkil topishi kerak. Shu sababli ham bu jabhada davlat nazoratining maxsus turlari joriy qilinishi kerak. Bunda yer kadastru ekspert xizmatini joriy etish kutilgan samarali natijalarni berishi mumkin. Ekspert xizmati tarkibiga kiruvchi mutaxassisning asosiy vazifasi yer kadastru hujjatlarini me'yoriy – xuquqiy talablarga mosligi, ularda qayd etilgan taklif va tavsiyalarni ilmiy asoslanganligiga e'tibor qaratishi zarur bo'ladi.

Respublika iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish va modernizatsiyalash talablariga asosan yer resurslarini qayta tiklash va yerdan tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha istiqbolli tadbirlarni muayyan hududdagi ko'chmas mulk obyektlarini joylashtirish xususiyatini inobatga olgan holda ularni o'zaro uyg'un holda amalga oshirishni ham talab qiladi. Fikrimizcha, YKAT bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni qayd etish lozim:

yer uchastkasi va uning tarkibidagi ko'chmas mulk obektlarini mutanosib holda rivojlantirish;

muayyan yer uchastkasi hududidagi ko'chmas mulklardan oqilona foydalanishga oid infratuzilmani rejalashtirish;

yer resurslarini boshqarishda yer kadastru axborot ta'minotini shaffof tarzda yaratish.

YKAT asosida yer resurslarini boshqarish bo'yicha asosiy yo'nalishlar etib quyidagilarni belgilash zarur:

yer turlari va yer toifalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni aniqlash; tuman (shahar)da maxsus yer fondini shakllantirish, uni taqsimoti va qayta taqsimotini belgilab qo'yish;

yer uchastkalari xususiyashtirilib olinganda yer haqi to'lash muddatini uzaytirish tizimini kiritish;

xususiyashtiriladigan yer uchastkalari narxini shu korxonaga ajralmas fondi miqdoriga qo'shib hisoblash, asosida moliyaviy rag'batlantirish uchun va tijorat maqsadida ajratish yo'li bilan oshirish;

zahira yerlar tarkibiga kiruvchi yer uchastkalarini, auksion tamoyillari asosida realizatsiya qilishni samarpali mexanizmlarini ishlab chiqish;

yer va ko'chmas mulk qiymati asosida ipoteka orqali kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish;

yer uchastkalarining ijaraga yoki ikkilamchi foydalanishga berish imkoniyatlarini kengaytirish;

klaster, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari qurilishi uchun yer ajratib berish jarayonlarini takomillashtirish.

Yer kadastrini axborotlarini boshqarish infratuzilmasi quyidagi yoʻllar bilan yaratiladi:

yer uchastkasi, bino-inshoot obyektlari, shuningdek, yer tuzish va kadastr xizmatida axborotlarni shakllantiruvchi samarali uslublarni joriy qilish;

yer kadastrini axborotlar tizimini toʻliq joriy qilish;

yer uchastkasi va koʻchmas mulk obyektlarini auksion orqali tartibga solish;

yer kadastrini axborotlarini boshqarishda qonun buzilishiga yoʻl qoʻyganlik uchun qonuniy javobgarlik oʻrnatish hamda ushbu jarayon ishtirokchilarini huquqi va manfaatini himoyalovchi fuqarolik huquqi vositalarini takomillashtirish.

Yer kadastrini axborotlarini samarali boshqarish shakllangan sharoitda tizimdan unumli foydalanish va uni boshqarishni prognozlash, yer uchastkasi va servitutlarni roʻyxatga olish, servitutni amaliyotda joriy qilish, yer hisobi va baholash ishlarini bajarish, yer soligʻi toʻlovlarini undirish, koʻchmas mulk obyektlarini toʻliq soliqqa tortish, yerni muhofazalashda davlat nazoratini taʼsirchan mexanizmlarini oʻrnatish, yer oldi-sotdisi shuningdek, yer uchastkasini optimal shakllantirishni tashkil qilish maqsadida joriy qilinadi.

Bu boradagi Dasturning birinchi bosqichida (2025-yilgacha) amalga oshirish lozim boʻlgan asosiy tadbirlar quyidagilardir:

davlat yer kadastrini yuritishning amaldagi qonunchilik va meʼyoriy- huquqiy bazalar talablariga javob bera oladigan elektron axborot almashuv tizimini shakllantirish;

oʻzida asosiy Nizom, tartiblarni, ilmiy asoslangan tamoyil va qoidalar majmuini namoyon qiluvchi, yer va unga bogʻliq mulkiy munosabatlarni muvofiqlashtirish tizimidagi davlat yer kadastrining oʻrni va ahamiyatiga asosiy eʼtiborni qaratish;

yer kadastrini axborotlar tizimi isteʼmolchilarining axborotga boʻlgan talablar tahlili, axborotlar oqimi, hujjatlar va boshqa zaruriy komponentlarni oʻrgana borib, isteʼmolchilar bilan axborotlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir qilish mexanizmini aniqlash asosida davlat yer kadastrini koʻrsatkichlar tizimini tarkibiy qismlari boʻyicha ishlab chiqish;

yer kadastrini axborotlarini ishlab chiqish jarayonini normativ- huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, unga tegishli boʻlgan dasturiy vositalar majmuini ishlab chiqish, axborotlarni himoyalash va ularni uzatishda tejamkor texnologiyalarni joriy qilish elektron dasturiy taʼminotini tarkiblarini tadbiq qilish;

soha uchun yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

yer kadastrini axborotlarini raqamli tarzda yaratish boʻyicha MFY, tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosida maqsadli yoʻl xaritasini tayyorlash;

yer uchastkasida sensorli chegara belgilarini oʻrnatish boʻyicha amaliy hamda innovatsion, kreativ yechimlarni amalga oshirish;

- yer uchastkasi, MFY, ma'muriy tuman, shahar, QQR, viloyat va Toshkent shahri hududlarida chegara belgilarini o'rnatishni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- yer uchastkalariga kadastr raqamini tartibli tizimini joriy qilish, maqsadida Respublika hududini kadastrli bo'linishini yakunlash va o'zgartirib borish algoritmini ishlab chiqish;
- yer kadastr axborot tizimini tartibga solish va shaffoflikni ta'minlash yerdan foydalanuvchi shaxslarni axborotlar bilan ta'minlash, ulardan foydalanganlik uchun mablag' to'lash tamoyilini o'rnatish;
- yer kadastr axborotlari asosida respublikada yer monitoringi axborotlarini bazasini shakllantirishga erishish;
- yer kadastr hujjatlari tarkibini quyi pog'onadan respublika miqyosdagi hisobot shakli va to'ldirish bo'yicha tartiblarni takomillashtirish;
- yer resurslari holati va bahosi haqidagi mavjud axborotlarga bo'lgan talabni muntazam ravishda o'rganib borish, davlat yer kadastr yuritilishini, unga iqtisodiyot tarmoqlari va tabiatni muhofazalash talab etiladigan tegishli ma'lumotlarni muntazam kiritilishini doimo takomillashtirib borishni amalga oshirish;
- yer uchastkalari haqidagi axborotlarni guruhlash va saqlash yer kadastr ma'lumotlarni shaffofligini ta'minlash;
- yer uchastkalarini xususiylashtirishda yer kadastr axborotlaridan samarali foydalanishni tashkil qilish;
- Dasturning II bosqichi (2026 – 2030 y.y.) amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy tadbirlar:
- davlat yer kadastrini yuritishni raqamlashtirishni ta'minlovchi dasturiy-texnikaviy majmualarni tatbiq etish;
- umumrespublika yagona standartlari, ma'lumotlarni almashish tartib- qoidalari, klassifikatorlari va texnologiya jarayonlari asosida kadastr ma'lumotlarini uzatish tartibini ishlab chiqish va undan tajriba tariqasida foydalanish hamda uning tizimini yaratish;
- yagona tamoyil, shakl va jarayon asosida davlat yer kadastrining tarmoq kadastrlari bilan o'zaro hamkorligini tashkillashtirish;
- axborotni muhofazalash tartiblari va tizimini yaratish va tashkil qilish, axborot xafvsizligi hamda uni ochiqiligini ta'minlash;
- yagona yer fondi hamda ma'muriy-hududiy tizimlar bo'yicha yer kadastr axborotlar tizimini yaratish va joriy etish;
- barcha yer uchastkalarida chegara belgilarini o'rnatish asosida mobil YKA ta'minotini va ularni integratsiyasini ta'minlash;
- tumanda yer uchastkalarida chegara nuqtalarini belgilash, muqim tarzda uskunalarini o'rnatish, ularni saqlash va nazorat qilish maqsadida kadastr agentligi tarkibida mobil xizmat guruhini tashkil etish;

har bir tuman (shahar) Kadastr agentligida onlayn tizimida foydalaniladigan yer kadastr axborotlar tizimi asosida yagona elektron xaritani yaratish va joriy etish.

Dasturni amalga oshirishning asosiy sharoitlaridan biri samarali va unumli ishlab turuvchi, yer resurslarini boshqaruvchi davlat organlari mavjudligi hisoblanadi. Hozirgi davrda yer kadastrini yuritish jarayonini Kadastr agentligi, va uning joylardagi xizmatlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Ushbu Dasturni amalga oshirish jarayonida quyidagi tashkiliy-texnik tadbirlarni ro'yobga chiqarish zarur bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy xizmatlari moddiy-texnika salohiyatini mustahkamlashga erishish;

Respublika hududidagi YKATni yuritish faoliyatini huquqiy, me'yoriy va metodik jihatdan tashkil qilish;

Yerdan foydalanish yer kadastr axborot ta'minotiga oid nazoratni o'rnatish va uni tartibli hamda tizimli ravishda tadbiriq qilish;

Tuman (shahar) Kadastr agentligi xizmatidagi shtatlar hisobidan yer kadastr axborotlar tizimiga oid mutaxassislar bilan to'liq shakllantirish, ularni zarur moddiy-texnik jihatdan to'liq ta'minlash asosida, yer fondi to'g'risidagi umumiy yer maydoni yer uchastkalari va ularga tegishli yer konturlari bo'yicha shaffof ma'lumotlar bilan ta'minlashga erishish;

Kadastr agentligi markaziy apparati tizimida yer kadastr bo'limi faoliyatini takomillashtirish, hududiy boshqarmalarda esa yer kadastr xizmatini tashkil qilish.

O'zbekistonda YKAT jarayonining dastlabki bosqichlaridagi (1991 – 2009, 2009 – 2021 y.y.) tajribalari hamda istiqboldagi (2030-yilgacha) maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda nafaqat me'yoriy-xuquqiy bazasini, balki davlat yer kadastrini yuritishning ta'sirchan mexanizmlarini uygun holda va yerdan foydalanishni hamda yer fondining qayta taqsimotini muvofiqlashtirib boruvchi barcha tizimlarni shakllantirish zaruriyati mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati.

[1] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023

[2] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan online-conferences 5 183

[3] Sattorov S Y 2020 Use of aerocomic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land Current scientific research in the modern world

[4] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics Journal agro processing

[5] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O 'RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 5. – №. 1. – C. 235-237.

- [6] Сатторов Ш.Я, Муҳаммадов Қ., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАРНИ О ЁРНИ //Эуро-Асиа Конференс. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [7] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [8] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [9] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛФОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
- [10] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." Агропроцессинг SPECIAL (2020).
- [11] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». Наука о данных . Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [12] [Geoportals visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [13] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024
- [14] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KARTAGA OLI SHDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 105-109.
- [15] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. GEOMA'LUMOTLAR BAZASIDAGI MAVZULI QATLAMLARNING ATRIBUTIV JADVALLARINI ALGORITMGA BOG'LASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 99-104.
- [16] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. AEROKOSMIK METOD YORDAMIDA MELIORATIV MONITORING QILISH VA KARTASINI ISHLAB CHI QISH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 110-115.
- [17] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. DALA TADQIQOT NATIJALARINI GEOMA'LUMOTLAR BAZASIGA INTEGRATSIYALASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 93-98.
- [18] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KOSMOSURATLARDAN FOYDALANIB ELEKTRON RAQAMLI KARTALARNI YANGILASH //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 54. – №. 4. – С. 14-18.